



Received: January 30, 2026
Accepted: February 24, 2026
Available online: February 25, 2026

Sardorbek Umarov

Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adbiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

FUTUVVAT KONSEPTINING TARIXIY- ADABIY EVOLYUTSIYASI VA UNING ALISHER NAVOIY DOSTONLARIDA POETIK TRANSFORMATSIYASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada futuvvat ilmining tarixiy-adabiy evolyutsiyasi hamda Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi poetik transformatsiyasi tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi – futuvvat ilmining diniy manbalarda axloqiy me'yor sifatida shakllanishi, diniy konseptual mohiyat kasb etishi, tasavvufiy hamda poetik transformatsiya jarayonidan o'tishi shuningdek, Alisher Navoiy davriga kelib yuksak poetik ideal darajasiga ko'tarilishini "Xamsa" dostonlari misolida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi esa futuvvat konsepsiyasining tarixiy genizisini aniqlash; poetik davrlashtirish; shuningdek, futuvvat g'oyasining – obrazga, obrazning esa estetik ideal darajadagi poetik transformatsiyasini Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlari misolida o'rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida futuvvat konseptining adabiy-estetik, qiyosiy jihatlarida tahlil qilinishi ilmiy metodologiya nuqtayi nazaridan yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

Maqolada payg'ambarlar tarixi, diniy-tasavvufiy manbalar, tasavvufiy ruhdagi asarlar va mumtoz badiiyat namunalari germevtik, qiyosiy-tahliliy metodlar asosida o'rganildi. Bu orqali futuvvat ilmining tarixiy taraqqiyoti va poetik transformatsiyasi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash imkoni yuzaga keldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, futuvvat ilmi tarixiy rivojlanish davomida diniy axloqdan poetik ong shakligacha uzoq davrni bosib o'tdi. Alisher Navoiy futuvvatning bu tarixiy-adabiy evolyutsiyasida eng yorqin vakil sifatida ajralib

Sardorbek Umarov

PhD Student
Alisher Navo'i Tashkent State University
of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0009-0006-5696-5532
E-mail: s.umar91@mail.ru

THE HISTORICAL AND LITERARY EVOLUTION OF THE CONCEPT OF FUTUWVA AND ITS POETIC TRANSFORMATION IN THE DASTANS BY ALISHER NAVO'I

ABSTRACT

This article systematically analyzes the historical-literary evolution of the science of futuwva and its poetic transformation in Alisher Navo'i's Khamsa epics. The aim of the research is to analyze the formation of the science of futuwva as a moral norm in religious sources, its acquisition of religious conceptual essence, its passage through Sufi and poetic transformation processes, as well as its elevation to a high poetic ideal by the time of Alisher Navo'i, based on the Khamsa epics.

The task of the research is to determine the historical genesis of the futuwva concept; to carry out poetic periodization; as well as to study the transformation of the idea of futuwva into an image, and the image into a poetic transformation at the level of an aesthetic ideal in Alisher Navo'i's Khamsa epics.

In the article, prophetic history, religious-Sufi sources, works in the Sufi spirit, and examples of classical literature were studied on the basis of hermeneutic and comparative-analytical methods. Through this, it became possible to identify the relationship between the historical development of the science of futuwva and its poetic transformation.

The results of the research show that the science of futuwva, during its historical development, passed a long period from religious ethics to the form of poetic consciousness. Alisher Navo'i stands out as the brightest representative of this historical-poetic evolution of futuwva,

turadi, chunki Alisher Navoiy diniy-falsafiy futuvvat konsepsiyasini badiiy obrazlar orqali tasvirladi. Natijada Navoiy dostonlarida futuvvat konsepsiyasi faqat axloqiy-tasavvufiy g'oyalar yig'indisi emas, balki poetik obraz, estetik ideal hamda poetik ong sifatida transformatsiyaga uchradi.

Maqolada futuvvat ilmining tarixiy taraqqiyoti, tasavvufiy mohiyati, poetik ijod masalasiga aylanish bosqichlari tadqiq qilinib, ularning uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Futuvvat g'oyasining Alisher Navoiy dostonlariga transformatsiyasini ko'rsatib berish – futuvvat tushunchasining diniy, tasavvufiy hamda poetik mohiyatini kengroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu kuzatishlar mazkur yo'nalishdagi dastlabki ilmiy urinishlardan biri bo'lib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: adabiyot, futuvvat, nubuvvat, evolyutsiya, poetik transformatsiya, Xamsa, himmat, iysor, axiylilik, javonmardlik.

KIRISH

Futuvvat islom va Sharq ma'naviy tafakkuri tarixida shakllangan yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilib, himmat, mardlik, vatanparvarlik, fidoiylilik kabi umuminsoniy fazilatlar mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Futuvvat Sharq falsafiy tafakkuri tarixida ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ijtimoiy-axloqiy hodisa. Dastlab axloqiy me'yorlar majmuyi sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik diniy axloqiy tizim, ma'naviy komillik modeli hamda ma'naviy ideal darajasiga ko'tarilgan. Mazkur ilmning diniy asoslari, tasavvufiy-irfoniy talqinlari hamda ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari har bir davrda o'ziga xos darajada talqin etilgan. Ammo uning badiiy tafakkur bilan aloqadorligi masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

Futuvvat ilmi tadqiqotlarida ko'proq axloqiy kategoriya va tasavvufiy ta'limot sifatida talqin etiladi. Futuvvat va javonmardlik ta'limoti diniy, falsafiy, tasavvufiy aspektlarda dunyo olimlari tomonidan keng o'rganilgan [Idem, 1993; 7, 16; Arnakis, 1953; 239; Gryunebaum, 1986; 60, 112-113; Trimengem, 1989; 65, 216; Bertels, 1965; Golpinarli, 2011; 9-10; Afifiy, 1996; 239; Vazirov, 1991; 171]. Biroq futuvvat g'oyasining konseptual shakllanish jarayoni hamda badiiy tafakkur doirasida qanday poetik transformatsiyalanganligi tizimli o'rganilgan emas. Vaholanki, har qanday g'oyaviy-axloqiy konseptning badiiy in'ikosi uning avvalgi tarixiy evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda, futuvvat ilmiga faqat g'oya, g'oyalar yig'indisi yoki axloqiy ta'limot sifatida emas, balki tarixiy-poetik jarayon mahsuli sifatida qarash ilmiy zaruratga aylanmoqda. Chunki, ayni shunday yondashuv futuvvat konseptining badiiy tafakkur sathida qanday o'zgarishlarga uchragani, poetik transformatsiyasi, semantik qatlamlari, obrazlari mohiyatini ochish imkonini beradi.

because he depicted the religious-philosophical concept of futuwwa through artistic images. As a result, in Navo'i's epics the concept of futuwwa was transformed not only into ethical-Sufi ideas, but also into a poetic image, an aesthetic ideal, and poetic consciousness.

In general, the article studies the stages of the historical development of the science of futuwwa, its Sufi essence, and the stages of its transformation into a subject of poetic creativity, revealing their interconnection.

Key words: literature, futuwwa, prophethood, evolution, concept, poetic transformation, Khamsa, generosity (himmat), altruism (ithar), chivalry (akhī tradition), javanmardlik.

Alisher Navoiy ijodi bu jihatdan futuvvat g‘oyasining poetik tafakkur mahsuliga aylanish jarayonidagi eng muhim bo‘g‘inlardan birini tashkil etdi. Chunki, futuvvat Navoiy dostonlarida axloqiy shior emas, balki badiiy estetik ideal, qahramon xarakteri va sujetni tashkillovchi ichki tamoyil sifatida ko‘rinadi. Shu bois futuvvat konseptining tarixiy taraqqiyoti va uning Navoiy ijodidagi badiiy transformatsiyasini o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish – ilmiy-metodologik zaruratdir.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada futuvvat konseptining tarixiy-poetik evolyutsiyasi hamda uning Alisher Navoiy dostonlaridagi poetik transformatsiyasi ko‘p bosqichli metodologik yondashuv asosida ochib berishga harakat qilindi:

1. *Germenevtik tahlil metodi*. Bu metod maqolaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu metod orqali futuvvat konseptining diniy, tasavvufiy va ijtimoiy-axloqiy qatlamlari talqin qilindi. Germenevtik yondashuv Alisher Navoiy dostonlaridagi futuvvat g‘oyalarining estetik va ma‘naviy funksiyalarini ochishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2. *Qiyosiy tahlil metodi*. Bunda futuvvatning tarixiy-poetik genizisi, turli davrlardagi talqinlari o‘zaro solishtirildi hamda natijalar Navoiyning badiiy ifodasi bilan qiyoslandi. Bu yondashuv konseptning mazmunini, semantik qatlamlarini va badiiy-estetik jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

3. *Tarixiy-genetik metod*. Futuvvatning axloqiy kategoriya sifatidan tasavvufiy ta‘limot, undan esa poetik konsept darajasiga ko‘tarilish bosqichlarini tizimli yoritishda qo‘llanildi. Bu metod konseptning genizisi va taraqqiyot mantiqini izchil tahlil qilish imkonini yaratdi.

Mazkur metodlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilib, futuvvat konseptining tarixiy shakllanish jarayoni bilan uning badiiy tafakkurdagi transformatsiyasi o‘rtasidagi uzviylik aniqlashga erishildi.

NATIJALAR

Futuvvat dastlab diniy-axloqiy ta‘limot doirasida shakllanib, tasavvufiy tafakkur jarayonida ma‘naviy konsepsiya darajasiga ko‘tarilgan hamda og‘zaki va yozma adabiyot vositasida poetik tafakkur tarkibiga bosqichma-bosqich singib borgan. Futuvvatning adabiy-estetik hodisa sifatida shakllanishi birdan yuzaga kelgan hodisa emas, balki uzoq tarixiy va ma‘naviy evolyutsiya mahsulidir.

Tahlillar natijasida futuvvatning poetik talqinga aylanishi uch davriy qatlam orqali amalga oshgani aniqlashtirildi: diniy-ma‘rifiy qatlam, tasavvufiy qatlam va epik-og‘zaki hamda yozma adabiyot qatlamlari. Mazkur qatlamlar o‘zaro uzviylikda taraqqiy etib, futuvvat g‘oyasining poetik mazmunga ko‘chish jarayoni sodir bo‘lgan.

Futuvvatning poetik evolyutsiyasi besh bosqichda tizimlashtirildi: diniy-axloqiy ideal, tasavvufiy-axloqiy kamolot, ramziy-poetik tafakkur, poetik tizim va estetik ideal bosqichlari. Ushbu bosqichlar orqali futuvvatning axloqiy tushunchadan badiiy tizimning ichki tamoyiliga aylanish jarayoni asoslab berildi. Ushbu xulosa futuvvat ilmining badiiy talqinga aylanish tarixini bir nechta poetik davriy qatlamlarga bo‘lib o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi:

1. *Diniy-ma'rifiy qatlam*. Bu qatlamda futuvsat ilmi to'liq poetik mohiyat kasb etmaydi. Bu davr futuvsatga diniy-axloqiy bosqich sifatida qaraldi. Bu davrda futuvsat fazilatlarini (saxovat, himmat, karam, ehson, iysor, javonmardlik, odamiylik, hayo, vafo, taslimiyat) asosan payg'ambarlarning hayot yo'li orqali namoyon bo'ladi. Natijada payg'ambarlarga xos fazilatlar tasavvuf va adabiyot uchun poetik protatipga aylanadi. Masalan, Odam (a.s.) tavba, Shis (a.s.) saxiylik, Nuh (a.s.) shukr va da'vat, Ibrohim (a.s.) tavid va sodiqlik, Ismoil (a.s.) vafo, Is'hoq (a.s.) baraka va solihlik, Ya'qub (a.s.) go'zal sabr, Yusuf (a.s.) iffat, go'zallik, kechirimlilik, Shu'ayb (a.s.) halollik, Ayub (a.s.) sabr, Muso (a.s.) kuch va ishonch, Dovud (a.s.) adolat, shukr, ibodat, Sulaymon (a.s.) hikmat va donolik, Yunus (a.s.) tavba va ulug'lik, Zakariyo (a.s.) yumshoqlik, duogo'ylik, Yahyo (a.s.) poklik va taqvo, Iso (a.s.) mo'jiza va Alloh kalomi, Muhammad (s.a.v.) eng go'zal axloq, rahm va shafqat timsollariga qiyoslanganligini ko'rish mumkin.

2. *Tasavvufiy qatlam*. Bu qatlamda futuvsat ilmining so'fiylar va valiyalar hayotidagi majoziy talqinlari nazarda tutiladi. Tasavvuf futuvsatni "payg'ambarlar axloqi", "futuvsat yo'li" sifatida o'rgatadi. Bu qatlamda futuvsat majoz sifatida tasvirlanadi. Masalan, *futuvsat – dengiz, futuvsat – sinov maydoni, nafs – dushman, Haq – maqsad, yo'l – tariqat, xazina – qalb boyligi, bog' – axloqiy fazilatlar uyi* kabi. Futuvsatning poetik metaforaga aylanishi aynan shu nuqtadan boshlangan. Shu bois ham tasavvufiy qatlam futuvsat ilmining ruhiy-ma'anaviy asosini tashkil qiladi. Bu qatlam vakillari (avliyolar, valiyalar, so'fiylar, oriflar) futuvsatning nafsga qarshi kurashish, qalb dunyosini poklash, Haq ma'rifatini yoyish, xalqqa xizmat qilish kabi futuvsatning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kengroq targ'ib qildilar. Futuvsat ilmi tasavvufiy qatlamda nafaqat zohiriy axloq (saxiylik, himmat, jasorat), balki ichki ruhiy tarbiya bilan ham uzviy bog'lanadi. Poetik qahramon birgina tashqi kuch va jasorat bilangina emas, balki ruhiy-ma'naviy poklik, nafsga qarshi ichki kurash bilan o'zing ichki ma'naviy olamini tozalaydi. Futuvsat g'oyasi badiiy asarda ramziy tizimni yuzaga keltiradi. *Yo'l, qalb, nafs, sharob, sabo, quyosh, suv, qilich, qadah* kabi ramzlar badiiy kodga aylanadi. Obraz va g'oyaning poetik uyg'unlashuvi axloqiy-ijtimoiy idealni yaratadi. Asar qahramonining ichki fazilatlarini ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashadi.

3. *Epik va og'zaki qatlam*. Futuvsat fazilatlarini xalq og'zaki ijod namunalari orqali arxetip sifatida iz qoldirdi degan ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, bu nafaqat arxetip, balki diniy-axloqiy kategoriyaning ajralmas bir qismi sifatida ham talqin qilinadi. Eng qadimgi dostonlar (Gilgamish, O'rxun-Enasoy bitiklari, Avesto va xalq og'zaki ijodi namunalari) futuvsatni to'liq konsepsiya sifatida emas, balki ayrim fazilatlar – sanalgan qahramonlik, mardlik, sevgi, sadoqat ko'rinishida aks ettirgan. Shu sababli qadimgi epik qatlamni futuvsatning manbai deb qabul qilish ilmiy jihatdan ham, diniy-tasavvufiy jihatdan ham to'g'ri emas. Og'zaki epik qatlamda futuvsat fazilatlarining ayrim tashqi ko'rinishlari mavjudligini ko'rsatuvchi umumiy fon sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Dunyo olimlari futuvsat atamasi islom davrida shakllangan bo'lsa-da, uning tarixiy poetik ildizlari juda qadimiy manbalarga borib taqaladi degan fikrni ilgari

surishadi. Uning isboti sifatida eng qadimgi badiiy ijod namunalarini misol qilib keltirishadi. Masalan, eng qadimgi madaniyat sifatida e'tirof etilayotgan Shumer madaniyatiga tegishli "Gilgamish" dostoni (mil.avv. III ming yillik) da tasvirlangan Gilgamish va Enkidu o'rtasidagi sadoqat, zulmga qarshi kurashish, Enkiduning Gilgamish uchun jonini fido qilishi kabi g'oyalar futuvvatning tarixiy arxetiplaridir, degan qarashlar mavjud. Shuningdek, "Avesto" hamda O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida tasvirlangan badiiy ifodalar ham isbot sifatida keltiriladi. Bizningcha, yuqoridagi qarashlar biryoqlama. Chunki, futuvvat birgina qahramonlik, bahodirlik emas, balki u payg'ambarlar axloqi, valiyzotlar yo'li, diniy-axloqiy tarbiya vositasi hamdir. Futuvvat tarixini poetik arxetip obrazlardan boshlash bu uning diniy mohiyatidan uzoqlashtirib miflarga yaqinlashtiradi [Zakeri, 1995; 230]. Mifologik obraz esa ko'proq abstrakt mohiyatni ifodalaydi. Futuvvat esa mavhum hodisa emas, balki diniy-tasavvufiy ildizga ega ijtimoiy-axloqiy hodisadir. Uning mazmun-mohiyati ilohiy kitoblarda aniq bayon etilgan bo'lib, unga mif, afsona tusini berish ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Tadqiqot natijasida futuvvat ilmining epik va og'zaki qatlamda shakllangan badiiy modeli Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarida konseptual yaxlit poetik sistema sifatida mukammallik kasb etgani ko'rsatildi. Mazkur maqola doirasida uchinchi qatlamning poetik sistema sifatida asoslanishi aynan Alisher Navoiy dostonlari misolida amalga oshirildi. Poetik transformatsiyaning tadrijiy takomilida Ahmad Yassaviy, Ahmad Yuknakiy, Yusuf Xos Hojib ijodiga ham murojaat qilindi.

MUNOZARA

Futuvvat so'zining o'zagi arabcha "fatiy" kalimasidan olingan bo'lib, umumiy ma'noda "yosh yigit" degan ma'noni anglatadi. Bu kalima haqida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: "... *"fatiy" so'zining yosh yigitga nisbat berilishi haqiqatdir, bundan boshqasi esa majoz, ya'ni ko'chma ma'nodadir. Majoziy ma'noda insoniy fazilatlar nuqtayi nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga nisbatan qo'llaydilar*" [Koshifiy, 2019; 296].

Futuvvat istilohini Olmoniyalik olim Frans Teshner quyidagicha tushuntiradi: "... *"feta" atamasi zodagonlar bilan birgalikda keng omma orasida odamiylik mezoni sifatida, islom g'oyalarining bir qismi bo'lib, ko'plab hududlarda o'ziga xos tarzda namayon bo'ldi. "Futuvva" so'zi bilan birgalikda arab tilida "al-turuvva" atamasi ham ishlatilgan va bu "erkak kishi" ma'nosini anglatadi*" [Teshner, 1979; 192]. Olmoniyalik olim Annamari Shimmel esa "feta"ni hazrat Ali bilan bog'laydi [Shimmel, 1999; 71].

Futuvvat ilmi haqida birinchilardan bo'lib asar yozgan olim – bu Abu Abdurahmon Sulamiydir. Uning ta'riflashicha, futuvvat istiloh sifatida "*Allohning amrlariga bo'ysunmoq, go'zal ibodat qilmoq, har qanday yomonliklarni tark etish, zohiriy va botiniy axloqning eng go'zaliga amal qilish*" ma'nosini bildiradi [Sullamiy, 1977; 24].

"Farhangi zaboni tojik" lug'atida esa "futuvvat" so'zi (javonmard, saxo, karam) deb izohlanadi [Farhangi zaboni tojik, 1969; 450].

Sayyid Ja'far Sajjodiyning "Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy" asarida

javonmard istilohiga shunday ta'rif beriladi: "*Javonmard – so'fiylar istilohida komil orif va o'zidan kechgan insonga nisbatan aytiladi*" [Sajjodiy, 1370; 294].

Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub "Qobusnoma" asarining 44-bobi juvonmardlikka bog'ishlangan. Asarda futuvvat istilohi o'rnida juvonmardlik so'zi qo'llangan bo'lib, juvonmardlik – "odamiylik", "oliyjanoblik" ma'nolarini ifodalagan. "Qobusnoma"da insonning uch xil sifatga egaligi va ularning biri juvonmardlik ekanligi tilga olinadi: "*Bilg'ilki, odam uch xil sifatga egadir. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh nodon bo'lsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri juvonmardlikdir deydi*" [Kaykovus, 2015; 183].

Futuvvat so'zi arabcha "feta" kalimasiga bog'lansa, javonmardlik ko'proq zardushtiylik bilan bog'liq ijtimoiy hodisa hisoblanadi [Umarov, 2024; 97]. "Avesto" kitobida javonmardlik haqida shunday deyiladi: "*Olam Shahriyori ruhlar dunyosida Ahuramazdaning amr-irodasini bajarsa, moddiy olamda ma'danlar ilohi, bechoralar va g'arib-u benavolarning panohidir. Uni mehribonlik va javonmardlik olami deb ham ataganlar*" [Avesto, 2001; 304].

Futuvvatga berilgan yuqoridagi lug'aviy va istilohiy ta'riflar futuvvatning shakllanish va rivojlanish takomilida turli xil shakliy o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, uning mazmuniy o'zagi "Qur'on" da keltirilgan "feta" kalimasiga borib bog'lanadi. Islomiy futuvvat o'z ildizlarini Qur'on oyatlarida, Payg'ambarimiz sunnatlarida, sohobayi kiromlarning go'zal ibratli hayot yo'llarida va musulmon jamoalarining odamiylik va birodarlik tamoyillaridan topdi. Futuvvat keyinchalik arab jamiyatida ideal ijtimoiy-axloqiy mezonlar, jumladan, saxovat, himmat, muruvvat, ehson, iysor; mardlik, odamiylik, oliyjanoblik, javonmardlik va boshqalarga yordam berish tamoyillarini o'z ichiga olgan konsepsiya sifatida shakllandi. Payg'ambarlarning ibratli axloq yo'li, hayoti, nasihatleri futuvvatning dastlabki konseptual asosini yuzaga keltirgan. Natijada futuvvat konsepsiyasi nafaqat shaxsiy axloqni, balki jamiyatdagi tartib-intizomni, ma'naviy qadriyatlarini asrash vazifalarini ham o'z ichiga olgan axloqiy ta'limotga aylangan. Mazkur konsepsiyasining mohiyatida muruvvat va futuvvat fazilatlarini turadi. Bu fazilatlarining bir-biridan farqi va darajalarini bilmasdan turib futuvvat va muruvvatning konseptual axloqqa aylanish jarayonini to'liq tushunib bo'lmaydi. Muruvvat va futuvvat fazilatlarini, darajalarini va farqlarini quyidagicha tizimga solish mumkin:

Muruvvat fazilatlarini

Saxovat – inson fitratidagi tabiiy yaxshilikka intilish kuchi, shaxsiy axloq bo'lib, mavjud boyliklarning ma'lum bir qismini insoniylik yuzasidan ulashish tushuniladi. Saxovat moddiy daraja bilan bog'liq bo'lib, unda ko'ngil, xohish va niyat bo'lishi shart. G'azzoliy bir hikmatida shunday deydi: "*Baxil olimdan ko'ra saxiy johil yaxshiroq*" [G'azzoliy, 2021; 135]. Nabiy alayhissalomdan rivoyat qilinadi: "*Saxiylik jannat daraxtlaridan bir daraxtdir, uning shoxlari yerga osilib turadi. Kim shu daraxtning bir shoxidan tutsa, o'sha shox uni jannatga olib kiradi*" [G'azzoliy, 2021; 132]. Abu Hurayra roziallohu anhu dedi: "Rasululloh: "*Saxiy Allohga, odamlarga va jannatga yaqin, do'zaxdan uzoq kishidir. Hasan Basriydan: "Saxiylik nima?" deb so'raldi. U: "Molingni Olloh azza va jallani deb berish", dedi. Bu haqida*

Alisher Navoiy ham “Mahbub ul-qulub” asarida maxsus to‘xtaladi: *“Himmat ahlig‘a agarchi biyik kavkabdur, ammo saxovatg‘a necha martabadur, Isrof saxo emas va itlofni ma‘no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug‘ kunda sham‘i kofuriy yoqqonni aqlidin begona derlar. Mubohot uchun bermak xudnamoliq va aning bila o‘zin saxiy demak behayoliq. Ulki el ko‘rmaguncha bermas – laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibram bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o‘tmakni ikki bo‘lub, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de; o‘zi yemay barin muhtojga berganni axiy de ”* [Navoiy, 2013; 507].

Himmat – insonning yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini ifodalovchi, ezgulik va saxovatga undovchi tushunchadir. Himmat inson ichki irodasini uyg‘otuvchi kuch sanaladi. Himmatli inson faqat qo‘lidagi narsasini birovga berishnigini emas, balki o‘zidagi kuch va imkoniyatlarni do‘stlari uchun sarflashi bilan ham ajralib turadi. Hazrat Navoiy “Mahbul ul-qulub” asarida “Saxovat va himmat” haqida shunday deydi: *“Himmat ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat valoyat xosi”* [Navoiy, 2013; 506]. Saxovat ham, himmat ham valiyarga xos fazilat bo‘lib, biri insonning zohirini, yana biri inson botinini tarbiyalovchi yuksak axloqiy fazilatdir. Navoiy saxovat tushunchasini jamiyat munosabatlarini, himmatni esa komil insonni tarbiyalovchi induvidal axloqiy fazilat sifatida talqin qiladi.

Umuman, saxovat tushunchasi moddiy imkoniyat bilan chegaralangan. Bu tushuncha birovlarga yaxshilik qilish, qo‘li ochiqlikni nazarda tutadi. Himmat esa chegaralanmagan. U vaqt va zamon, ko‘ngil va niyat bilan bog‘liq. Himmatli inson o‘zini boshqalar uchun qurbon qilishga tayyor inson. Ammo bu harakatni iysorning ayni o‘zi deb bo‘lmaydi. Iysor o‘zini qurbon qilishgacha borib yetadi. Himmat ruhiy-axloqiy daraja bo‘lib, iroda bilan bog‘liq xislat sanaladi. Himmat yuksak insoniy fazilatga ega bo‘lgan, Alloh ma‘rifatini anglash uchun yo‘lga chiqqan, komillikka intilayotgan solihning go‘zal axloqidir. Himmat saxovatni harakatga keltiruvchi kuchdir. Saxovat ana shu kuchdan unib chiqqan mevadir. Demak, himmat umumiy manba, komil insonning belgisidir. Saxovat esa o‘sha himmatning amaliy ko‘rinishi. Bu haqda Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida saxovat va himmatni shunday ta‘riflaydi: *“...Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamga yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas”* [Navoiy, 2013; 507]. Navoiy saxovatni badanga, himmatni badan ichidagi jonga qiyos qiladi. Navoiy saxovatni ijtimoiy jamiyat munosabatlarni yaxshilovchi axloqiy fazilat sifatida, himmatni esa yuksak insoniylik sari yetaklovchi ma‘naviy-axloqiy yo‘l sifatida talqin qiladi.

Karam – odamiylikning eng yuqori darajalaridan biri bo‘lib, ulug‘lik, yuksak saxovat, oliyjanoblik ma‘nolarini ifoda etadi. Karam moddiy jihatlar bilan cheklanmay, ma‘naviy va axloqiy yuksak fazilatlar orqali ham namoyon bo‘ladigan tushunchadir. Karam so‘zi arabcha ma‘noga ega bo‘lib, Allohning eng go‘zal sifatlaridan (*Al-Karim*) biri sifatida ham ishlatiladi. Alloh karam haqida Qur‘oni Karimning “Baqara” surasi 237-oyatida shunday deydi: *“...O‘zaro bir-birlaringizga fazl-u karam qilishni unutmangiz! Albatta, Alloh qilayotgan amallaringizni ko‘rguvchidir”* [Qur‘oni Karim, 1992; 35]. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida karam va uning sifatleri

haqida shunday deydi: *“Karam bir jafokashning shiddati yukin ko‘tarmakdur va ani ul suubatdin o‘tkarmakdur. Birovning mehnati xori hamlin qabul qilmoq va ul tikan no‘gidin guldek ochilmoq va ul qilg‘onning tilga kelturmamoq va og‘izg‘a olmamoq va ul kishiga minnat qo‘ymamoq va aning yuziga solmamoq. Karam sifoti akram ul-akramin ishidur, sohib karam kishi haqning bu nav‘ sifati g‘a mutobe‘ kishidur”* [Navoiy, 2013; 507].

Alisher Navoiy *“Mahbub ul-qulub”* asarining 13-tanbehida karam oyini va futuvvat qoidalarini boshqa-boshqa anglash kerakligini alohida ta‘kidlaydi. Keyingi 14-tanbehda esa 13-tanbehning izohi sifatida *“Karam va futuvvat tariqida”* deb nomlangan maxsus bob kiritadi. Mazkur tanbehda Navoiy karam haqida batafsil to‘xtalib o‘tadi, ammo futuvvat haqida aniq fikr bayon qilmaydi. Asarning *“Muruvvat bobida”* deb nomlangan 16-tanbehda muruvvat haqida to‘xtalib shunday yozadi: *“Ma‘dumluqda muruvvat karamning urug‘-qayoshidir, balki tav‘amon qarindoshidir. Ikkalasi chun el bevafoligidan ogah bo‘lubtur, bulardan qochib adam mulki safariga hamroh bo‘libdur. Sohibi karam ul nafis matoyidin ayrulurni saloh bilmaydur va sohibi muruvvat dag‘i ul sharif xalqidin ayrilmaydurkim, ikkalasi qayda bo‘lsalar Tengri panohida bo‘lsunlar, izzat va sharaf oromgohida”* [Navoiy, 2013; 507]. Navoiy muruvvatni karamning urug‘i deydi. Karamning saxovat va himmatdan farqi shuki, unga Allohga xos bo‘lgan ulug‘lik, komillik, izzat va marhamatlilik kabi sifatlar qo‘shilgan. Alisher Navoiy *“Mahbub ul-qulub”* asarida: *“Karam va muruvvat ato va anodurlar, vafo-yu hayo ikki hamzod farzand”* deb ta‘kidlaydi [Navoiy, 2013; 508]. Navoiy karam va muruvvatni ota-onaga qiyos qiladi. Bu iqtibos orqali karam muruvvatning muhim tarkibiy qismi va bir-biriga bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi.

Ehson – arabcha *“ihsan”* so‘zdan olingan bo‘lib, yaxshilik qilish, naf keltirish, sadaqa berish kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Ehson juda keng tushuncha bo‘lib, u moddiy va ma‘naviy mohiyat kasb etadi. Diniy manbalarda ehson *“Allohga uni ko‘rib turgandek ibodat qilish”* deb talqin qilinadi. Qur‘onda ehson eng yaxshi fazilatlardan biri sifatida ta‘riflanadi: *“A‘robiylar orasida Allohga va oxirat kuniga iymon keltiradigan va qiladigan infoq-ehsonini Alloh dargohida qurbat (yaqinlik) hosil qilish va payg‘ambar duosiga (musharraf bo‘lish) deb biladigan zotlar ham bor. Ogoh bo‘lsinlarkim, o‘sha infoq-ehsonlari o‘zlari uchun qurbatdir. Alloh ularni O‘z rahmatiga doxil qilajak. Albatta, Alloh mag‘firatli, mehribondir”* [Qur‘oni Karim, 1992; 159].

Ehson Navoiyning badiiy konsepsiyasida yuksak darajada tasvirlanadi. *“Mahbub ul-qulub”*da insoniylikning eng go‘zal belgisi ekani aytiladi: *“Insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari ehsondur va odamiylik konining arjumandroq gavhari ham ehsondur. .*

Qit‘a:

*Ajab sifat erur ehsonki har sharif sifat,
Ki, kelsa jinsi bashardin anga erur doxil.
Javohir angla sifot oni javhary qafasi,
Ki, bordur anda qayu birni istasang hosil* [Navoiy, 2013; 504].

*Kishida barcha axloqi hamida,
 Chu jam' o'ldi qo'yarlar otin ehson.
 Biri andin saxodur, bir muruvvat,
 Bular gar yo'tur, inson ermas inson [Navoiy, 2013; 531].*

Navoiy asarlarida ehson komil inson axloqining amaliy ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining uchinchi qismida ehson haqida batafsilroq to'xtaladi: "*Yana bir amri azim ehsondurkim, aning bayonida ko'p so'z ayondur. Al-insonu ubayd al-ehson anga dol va halli jazo al-ehson ilal al ehson anga guvohi hol. Jami' mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshiliq jazosi yo'qtur – bajuz yaxshiliq va nubuvvati lison mo'jaz bayonig'a dag'i bu ishorat o'tubdurkim, ahsin kama ahsana allohu ilayka Hazrat mundoq amr etibdurki, yaxshilik yetkur andoqkim, Tengridin sanga yaxshiliq yetibdur*" [Navoiy, 2013; 531]. Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarida ehson qiluvchi insonning odati, amali haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. Masalan, 37-hikmat quyidagicha: "***Sun ehsonaka bi lo i'tizori***" (Ehson qilsang, hokisorlik bilan uni takror et) Hazrat Alining ushbu hikmatini Navoiy quyidagicha sharhlaydi:

*Ehsonki, qilursen iftixor aylab ani,
 Olamda ulug' ish e'tibor aylab ani,
 Hech aylama elga girudor aylab ani,
 Qilg'il iki oncha e'tizor aylab ani [Navoiy, 2013; 48].*

Demak, barchaga maqtanib "men qildim, ko'ringlar" deb ko'z-ko'z qilib qilish ehson darajasiga kirmaydi. Ehson qilmoqchi inson qilgan ehsonini birovga aytmadan ehson qilishda davom etishi kerak deydi, Navoiy.

Muruvvat – barcha yuksak axloqiy fazilatlarining asosi, insoniylikning bosh mezoni sanaladi. Muruvvat so'zining lug'aviy ma'nosi arabcha "*maru'a*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "*odamgarchilik, saxovat, birovga yordam berish, yuksak insoniy fazilat*" ma'nolarida qo'llanadi. Insonni komillikka yetaklovchi axloqiy fazilatlarining barchasi muruvvatga asoslanadi. Muruvvat axloqiy fazilatlarining yakuniy bosqichi, futuvvatning esa boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Muruvvat bu – ruhiy va axloqiy uyg'unlik, inson qalbining pokligi. Muruvvatni ehsonning ruhiy-ma'naviy qatlami deyish mumkin. Muruvvat insonga mehr-muhabbat bilan yaxshilik qilishni targ'ib qiladi. Muruvvat va uning fazilatleri sanalgan saxovat, himmat, karam va ehson tushunchalari kengroq falsafiy tahlil qilinsa, saxovat – *moddiyat bilan bog'liq amaliy yordam*; himmat – *kuch, iroda va shijoat bilan bog'liq ruhiy-ma'naviy yordamga shaylik*; karam – *yuksak saxovat, yuksak ulug'lik*; ehson – *qalbdan chiqqan pok niyat, moddiy-ma'naviy yordam*; muruvvat – *oxirgi natija bo'lib, qalb va ruhiyat uyg'unligi orqali shakllangan komil inson axloqidir*. Komil insonning axloqi sanalgan muruvvat, saxovat, himmat, karam, ehson, iysor va futuvvatni mevali daraxtga qiyos qilish mumkin. Bu daraxtning tuprog'i – *muhabbat*, ildizi – *futuvvat*, tanasi – *muruvvat*,

shoxlari – *karam va saxovat*, po‘stlog‘i *hayo*, gul-u barglari – *himmat*, mevasi *ehson va iysordir*.

Futuvvat fazilatlari

Iysor – arabcha “*ithar*” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zidan boshqalar manfaatini ustun qo‘yish, o‘ziga kerak bo‘lgan narsasini boshqaga chin dildan berib yuborish ma‘nolarini bildiradi. Ehsinning eng yuksak ko‘rinishi ham aynan iysor xulqidir. Yeyish uchun o‘zingda bir dona non bor, ammo uni boshqaga berib yuborish – bu iysor. Iysor ehsinning eng yuksak, oliy darajadagi ko‘rinishi hisoblanadi. Har qanday iysor – bu ehsin, lekin har qanday ehsin – iysor emas. Iysor ehsinning eng yuksak darajasidir. Alloh taolo sahobalar roziyallohu anhumalarni shunday maqtadi: “*Ulardan (muhojirlardan) ilgari (Madina) diyoriga o‘rnashgan va iymon-e‘tiqodni (mahkam ushlagan) zotlar (ansorlar) esa o‘zlari (ning yonlari) ga hijrat qilib kelgan kishilarni suyarlar va dillariga ularga (muhojirlarga) berilgan narsa-o‘ljalar sababli biron hasad tuymaslar hamda garchi o‘zlarida ehtiyoj bo‘lsa-da, o‘zlarini qo‘yib, (o‘zgalarni) iysor-ixtiyor qilurlar. Kimki o‘z nafsining baxilligidan saqlana olsa, ana o‘shalar najot topguvchi zotlardir*” [Qur‘oni Karim, 1992; 672].

Sahl ibn Abdulloh Tustariyning keltirishicha, “*Muso alayhissalom: “Ey Robbim, menga Muhammad alayhissalom bilan ummati darajalaridan birini ko‘rsatgin”, dedilar. Olloh taolo: “Ey Muso, bunga toqating yetmaydi. Lekin sen bilan jamiki maxluqotimdan ularni afzal qilgan eng ulug‘ maqomlaridan birini ko‘rsataman”, dedi. Muso alayhissalomga samovot mulklari ochildi va bir darajasidagi nurlarni hamda Olloh taologa yaqinligini ko‘rib o‘zini halok etayozdi. Shunda Muso alayhissalom: “Ey Robbim, qaysi amallari tufayli ularga bu karomatni ato etding” dedi. Olloh taolo: “Ular orasidan bir kishiga xoslab berganim iysor xulqi tufaylidir. Ey Muso, ulardan birortasi umrida shu amalni qilib, huzurimga kelsa, uni hisob qilishdan uyalib, jannatimdan xohlagan joyini maskan qilib beraman, - dedi”* [G‘azzoliy, 2021; 172]. Iysor Olloh taoloning eng go‘zal xulqi hisoblanib, saxiylikning eng oxirgi darajasidir. Undan keyingi daraja esa futuvvat va javonmardlik hisoblanadi.

Muruvvat va futuvvat bir-biriga juda ham bog‘liq bo‘lganligi uchun muruvvat va futuvvat fazilatlari quyidagicha bir-biriga bog‘lanadi: saxovat – himmatga, himmat – karamga, karam – ehsonga, ehsin esa muruvvatga borib bog‘lanadi; muruvvat esa iysorga, iysor futuvvatga borib tutashadi. Natijada muruvvat va futuvvat fazilatlari komil inson bosib o‘tishi lozim bo‘lgan axloqiy yo‘lni ifodalaydi.

Keyingi davrlarda futuvvat va javonmardlik harakati diniy hayotda, qolaversa, adabiyot va san‘atda ham muhim o‘rin egalladi. Jumladan, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalar futuvvatni inson kamolotining gulto‘ji, jamiyat tinchligi va axloqiy barkamollikning poydevori sifatida talqin eta boshladilar. Shu sababli ham futuvvat ilmi – faqat diniy kategoriya doirasida emas, balki islomiy madaniyat, yuksak axloq, tasavvuf va falsafani birlashtiruvchi muhim yo‘nalish sifatida rivojlandi.

Mazkur ilmiy yo‘nalishning tarixiy-adabiy evolyutsiyasi hamda badiiy adabiyotga transformatsiya bosqichlarini tahlil qilish muhim ilmiy muammolarga

amaliy yechim beradi. Bu bosqichlar futuvtat g'oyasining tarixiy davrlari emas, balki axloqiy tushunchadan poetik tafakkur mahsuliga aylanish bosqichlari hamda poetik ong'dagi transfotmatsiyasini nazarda tutadi. Ular quyidagilar:

1. Diniy-axloqiy ideal bosqich. Bu boshlang'ich bosqich bo'lib, unda saxovat, himmat, ehson, iysor kabi futuvtat fazilatlarini diniy-axloqiy ideal bosqichning asosini tashkil etadi. Bu bosqichda futuvtat yaxlit tizim ham, poetik obraz ham emas. U faqat keyingi bosqich uchun ma'naviy asos. U faqat payg'ambarlarning ibratli axloqi sifatida namoyon bo'ladi. Diniy manbalar, xususan, payg'ambarlar tarixiga nazar tashlansa, bashariyat tarixida nubuvvat hayliga qo'shilgan har bir payg'ambarlar avval nubuvvat bilan, keyin esa futuvtat axloqi bilan ziynatlandilar. Xususan futuvtatning eng yuksak namunasi payg'ambarlarning hayoti va faoliyati bilan bog'liqdir. Nubuvvat darajalari barcha payg'ambarlar hayotida turlicha talqin etilgan. Masalan, Qur'oni Karimning Baqara surasi 253-oyatda shunday deyilgan: "*O'sha payg'ambarlarning ayrimlarini ayrimlaridan afzal qildik. Ularning oralarida Alloh (bevosita) so'zlagan zotlar bor. Va (ularning) ayrimlarini (Alloh) yuksak darajalarga ko'tardi*" [Qur'oni karim, 2004; 36]. Mazkur oyat orqali nubuvvat darajalarining turlicha ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa futuvtat konsepsiyasida ham ma'naviy kamolot bosqichlari mavjudligi haqidagi tasavvurni anglashga zamin yaratadi. Xususan, turk olimlari tomonidan tuzilgan "Payg'ambar va futuvtat" nomli kitobda nubuvvat va futuvtat tushunchalarning birgalikda juda ko'p o'rinlarda qo'llanilishi ular o'rtasidagi konseptual va g'oyaviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Qur'onning "*Qasas*", "*Toha*", "*An'om*", "*Yusuf*" suralarida Ibrohim, Muso va Horun, Yusuf payg'ambarlarning nubuvvat bilan birgalikda futuvtatga aloqador jihatlari ham tilga olinadi. "*Qasas*" surasining juda ko'p o'rinlari Muso, Horun va uning xizmatkor yigiti (Yusha')ga bag'ishlanganligini o'ziyoq futuvtat har doim nubuvvat bilan yonma yon bo'lganligini tasdiqlaydi: "*Muso (o'zining xizmatkor) yigitiga: "To ikki dengiz qo'shiladigan yerga yetmaguncha yoki uzoq zamonlar kezmaguncha yurishdan to'xtamayman, degan paytini eslangiz*" [Qur'oni karim, 2004; 252].

2. Tasavvufiy-irfoniy bosqich. Bu bosqichni zohidlar, obidlar, oriflar, so'fiylar, valiyalar axloqi tashkil etadi. Bu bosqichda futuvtat deganda ma'naviy tarbiya, pir va murid axloqi, ichki poklanish tushuniladi. Murshidlar muridlarni irfoniy nasr, hikmatli so'zlar, og'zaki nasihatlar bilan tarbiyalaydi. Unda ramzlar to'liq poetik tizimga aylanmagan. Poetik obraz shakllanmagan. Futuvtatni poetikaga aylanishi ta'minlaydigan adabiy tizim yo'q. Bu bosqich poetik tafakkurga aylanish uchun murid tarbiyasi ko'proq didaktik pand-nasihat qilish orqali olib borilgan. Futuvtat bu bosqichda she'riy tafakkurga aylanmagan. Ammo futuvtat bu bosqichda ruhiy tarbiya vositasi va ma'rifiy tarbiya mezoniga aylangan. Umuman, bu bosqich axloqiy bosqich emas, balki irfoniy kamolotga yetkazuvchi ruhiy-ma'naviy bosqichdir. Hasan Basriy, Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Robiya Adviya, Zunnun Misriy, Ibrohim Adham, Junayd Bag'dodiy kabi tasavvuf ahli uchun tashqi amaliy harakatlar emas, ko'proq ichki, nafsga qarshi kurashib o'zini poklash muhimroq sanalgan. So'fiylar orasida shoirtabiatlilari ham bo'lib, ular kichik-kichik lirik she'rlar yozib, uni qo'shiq qilib kuylab yurishgan. Bu lirik she'rlar poetik san'at darajasida bitilmagan bo'lsa-da,

ammo ularni o'sha davr adabiyotiga oid ilk diniy-mistik ijod namunalari deb aytilish mumkin. Masalan, Suriyalik Robiya ash-Shamiyaning o'zi yozgan she'rini misol qilib keltirish mumkin:

*“Yoringa teng kelmas boshqa hech bir yor,
Ko'nglimni zabt etgan tanho Bir-u Bor.
Garchi u vujudim, ko'zimdin yiroq,
Ketmaydi u mening ko'nglimdan biroq”* [Shimmel, 1999; 48].

3. Ramziy poetik tafakkur bosqichi. Mazkur bosqichda futuvsat ma'rifiy tarbiya vositasidan chiqib, hikmatli ramziy-majoziy poetik tafakkur shakliga o'ta boshlaydi. Bu bosqich ham o'z navbatida ichki guruhlariga bo'linadi:

A. Ilk poetik timsol bosqichi. Turkiy tasavvuf tarixida futuvsatning poetik timsolga aylanishi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liq. Garchi uning hikmatlarida futuvsat va javonmardlik nomlari ochiq g'oya sifatida tilga olinmasa-da, futuvsat va javonmardlikka xos mardlik, saxovat, himmat, ehson kabi axloqiy fazilatlar ramziy poetik timsollar orqali talqin etildi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonning o'z nafsiga qarshi kurashib poklanish g'oyasi futuvsat fazilatlarini orqali bayon qilinadi. Yassaviy hikmatlarida futuvsat shaxsiy axloqdan yuqoriga ko'tarilib, komil inson timsolining poetik mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *“xizmat”, “ishq”, “faqr”, “qo'l”, “g'ariblik”, “xorlik”* kabi tushunchalar poetik timsollar orqali ifodalanadi. Jumladan, *“Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovla, Mustafodek elni kezib yetim kovla...”*, *“Piri mug'on xizmatida yugurib yurdim, Xizmat qilib, ko'zim yummay hozir turdim...”*, *“Taom topsang, joning bila qilgin ehson...”*, *“Nafsim meni yo'ldin urib xor ayladi, Termulturib xaloyiqqa zor ayladi...”* [Yassaviy, 1991] hikmatlarida keltirilgan *“faqr”* timsoli ruhiy yuksaklik, ma'naviy poklik timsoliga mengzalsa, *“xorlik”* timsoli esa o'z nafsini sindirish, kamtarinlik ramzi sifatida ishlatilgan. Umuman, futuvsatning bu jihatlari nazariy ta'riflar bilan emas, balki poetik badiiy tafakkur orqali aniqroq tasavvur qilinadi. Ahmad Yassaviyning badiiy mahorati shundaki, u birgina futuvsat g'oyasini emas, balki barcha islomiy qarashlar va tasavvufiy g'oyalarni turkiy she'riyatga olib kira oldi. Bu haqida yassaviyshunos Ibrohim Haqqulov shunday deydi: *“Yassaviy tariqatining o'zidan avvalgi boshqa tariqatlardan farqlanuvchi jihati bu uning tilidir. Unda islomiy tasavvuf g'oyalari ilk marotaba turkcha talqin etilgan edi. Yassaviyning ikkinchi bir o'ziga xos va muhim tomoni, uning islom dini, shu dinning bosh kitobi “Qur'on”ni tayanch manba bilib, forsiy tildagi tasavvuf tajribalaridan ijodiy foydalanish bilan bir qatorda turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlardan yiroqlashmaganligidir”* [Haqqulov, 2001; 9-10]. Chindan ham Yassaviy hikmat janri orqali turkiy tasavvuf she'riyatiga yangi milliy ruh, irfoniy mavzu, g'oya va poetik timsol olib kirdi. Natijada turkiy tasavvufiy she'riyatining poydevorini yaratdi. Yassaviy futuvsatni diniy axloq doirasidan chiqarib, poetik nutq va she'riy tahayyulga aylantira oldi.

B. She'riy didaktik bosqich. Futuvsatning she'riy-didaktik mazmun kasb etishi Ahmad Yugnakiy asarlarida aniqroq ko'zga tashlanadi. Masalan, Yugnakiy futuvsatni axloqiy fazilat sifatida tasvirlab, jamiyatni tarbiyalovchi axloqiy-poetik

modelga aylantiradi. Yassaviyda poetik timsol markaziy planda tasvirlansa, Ahmad Yugnakiyda poetik timsol tadrijiy evolutsiyaga uchrab didaktik xarakterdagi axloqiy-badiiy tizim holiga keladi. Yugnakiy hikmatlaridagi saxovat, himmat, tavoze, to'g'rilik, oliyhimmatlilik kabi fazilatlar lirik qahramonning xarakteriga ko'chadi. Natijada futuvvat lirik qahramonning xakteri sifatida, shuningdek, axloqiy darajani tartibga soluvchi she'riy-axloqiy qoidaga aylanadi. Futuvvat g'oyasi didaktik she'riyat orqali kitobxonga oson ta'sir etadi. Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoqiy" asarida ochiq targ'ib qilinadi. Futuvvat lirik qahramonning dramatik harakatlari bilan emas, balki she'rning ohangi, misralarning poetik ta'sirchangligi orqali talqin qilinadi. Yugnakiyda futuvvat ramzli poetik timsol ko'rinishidan emas, ochiq didaktik mazmun shaklida poetik tafakkurga aylandi.

D. Ijtimoiy-siyosiy poetik bosqich. Futuvvat ilmining ijtimoiy-siyosiy poetika mazmunga aylanishi, ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aniq bayon qilingan. Yusuf Xos Hojib futuvvatni davlat falsafasiga aylantiradi va futuvvat g'oyalarini didaktik doston poetikasiga singdirib yubordi.

Dostonida adolatli jamiyat, odil podshoh timsoli futuvvat fazilatlarini bilan bog'lab talqin qilinadi. Natijada podshoh va jamiyat futuvvat orqali ideal darajaga ko'tariladi. "Qutadg'u bilig"da adolat, ilm, saxiylik, kamtarlik, odamiylik alohida targ'ib qilinadigan fazilatlar emas, balki adolatli jamiyat va komil insonning eng muhim ajralmas belgisi sifatida tasvirlanadi. Bu bosqichda g'oya obraz bilan uyg'unlashib yaxlit kompozitsiyaga aylanadi.

G'oyaning poetik obraz bilan uyg'unlashuvi va yaxlit poetik sistemaga aylanishi ijodkorning badiiy mahorati bilan ham bog'liq. Tasavvufiy g'oyaning poetik obrazga aylanish tarixi folklor an'analari bilan ham bog'liq. Masalan, xalq dostonlari va tasavvufiy asarlarda bahodir, alp, shoh, pir, murid, darvesh futuvvat mezonlariga qarab baholanadi. Dostonlarda alp va bahodirlarga xos javonmardlik estetik ideal sifatida tasvirlanadi. Bu bosqichda futuvvat mavhumlikdan harakatdagi badiiy-axloqiy voqelikka aylanadi. Ya'ni bu bosqichda futuvvatga xos voqelik badiiy ramz orqali ifodalanadi hamda g'oya badiiy timsollarda yashay boshlaydi. Futuvvat bu bosqichda poetik qonuniyat sifatida emas, balki ko'proq obrazning induvidal sifatleri sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda futuvvat g'oyasi obrazning xarakteriga mujassamlanib, obrazning ichki dunyosi sifatida namoyon bo'ladi. Futuvvatga xos axloqiy sifatlar sanalgan saxovat, himmat, odamiylik, fidoyilik, javonmardlik sifatleri ramziy obrazlar orqali qayta poetik tafakkur shakliga kiradi.

E. Poetik usul bosqichi. Futuvvat mazkur bosqichda axloqiy qarashlar, mavzu va g'oya sifatida emas, balki poetik mexanizmning mazmuniy usuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda futuvvat poetik obrazga aylanadi, u endi oddiy "saxovat", "himmat", "ehson", "iysor", "fidoiylik" kabi quruq mavhum tushunchalar sifatida emas, balki obraz, poetik timsol, xarakter sifatida ko'rinadi. Masalan, *futuvvat – sham (o'zi erib fanoga yuz tutadi, ammo boshqalarga manfaat keltiradi)*, *futuvvat – qalqon (zulm va nafsga qarshi ma'naviy qalqon)*, *futuvvat – daryo*. Futuvvat g'oyasi poetik tafakkurga aylanishi orqali nafaqat diniy-axloqiy mohiyatini, balki poetik obraz, badiiy timsol, lirik qahramon, adabiy-estetik ideallikka xos jihatlarini ham saqlab qoladi. Bu

bosqichda futuvvat poetik majoz obyektiga aylanadi. Umuman, mazkur bosqichda futuvvat obrazlar silsilasi, sujet harakati va dinamikasi, qahramon xarakteri orqali ifodalanadi. Bu bosqichda futuvvatga xos axloqiy fazilatlar ramzlar, majozlar, badiiy tasviriy vositalar, qahramon harakatlari orqali aks etadi. Bu bosqichda futuvvat obraz yaratish usuli, ijobiy va salbiyga ajratish mezon, badiiy tasvir uslubidir. Futuvvat bitta qahramonga emas, butun poetik olamga singib ketadi. Bu bosqichda futuvvat sujet va obrazni harakatlantiruvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi. Lekin futuvvatni poetik usul qonuniyatiga kiruvchi obraz, ramz, sujet, xarakter qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Chunki poetik usul umumiy badiiy qonuniyatlarga asoslanadigan shakliy mustaqil poetik sistemadir. Futuvvat esa ushbu badiiy sistemaning eng muhim komponenti emas, balki ma'lum bir mavzu va g'oyaviy qarashlar doirasida poetik mexanizmi harakatga keltiruvchi faol kuch, xolos. Agar mavzu o'zgarsa, futuvvat ham o'zgaradi. Lekin badiiy qonuniyatning eng muhim unsurlari sanalgan obraz, til, kompozitsiya, ramz boshqa asarlarda ham takrorlanadigan o'zgaras poetik qonuniyatlardir.

E. Poetik ideal bosqich. Mazkur bosqich futuvvatning eng yuksak poetik ideal darajaga aylanish bosqichidir. Bu bosqichda futuvvat birgina axloqiy fazilatlar majmuyi emas, balki diniy-axloqiy ideal sifatida shakllanib, keyinchalik tasavvufiy axloqqa, badiiy tafakkurga, poetik usul mexanizmiga va nihoyat butun bir poetik-falsafiy konsepsiyaga aylangan badiiy-falsafiy tizimni tashkil etadi. Futuvvat ayni bosqichda – badiiyatning yadrosi, poetik usul – badiiyatning ichki qonuni, ideal mezon – butun badiiyat olamini boshqaruvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda futuvvat obrazning individual axloqiy fazilati sifatida emas, balki olam va odam, inson va jamiyat haqidagi ideal tasavvurlarning poetik modeli sifatida namoyon bo'ladi. Butun asardagi poetik tafakkur, badiiy voqelik, obrazlararo konfliktlar poetik ideal modeli nuqtayi nazaridan baholanadi. Natijada futuvvat axloqiy fazilatlar majmuasidan chiqib, badiiy tafakkurni boshqaruvchi poetik idealga aylanadi. Bu hol keyingi adabiy jarayonlarda muhim mezon vazifasini bajaradi. Futuvvatning ana shunday yuksak poetik ideal darajasiga ko'tarilishi Sharq adabiy tafakkurining muayyan taraqqiyot bosqichi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon, ayniqsa, Alisher Navoiy davri adabiyotida yaqqol namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy davri bu – futuvvat ilmining eng yuksak poetik tafakkur sifatida kamol topgan davridir. Navoiy futuvvatni ijtimoiy-falsafiy axloqiy kategoriya sifatida emas, ko'proq komil inson ma'naviyatining asosiy tamoyili sifatida talqin qiladi. Uning asarlarida futuvvat faqat diniy-tasavvufiy tushuncha emas, balki ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy, didaktik g'oya va qarashlarning badiiy-falsafiy, konseptual tizimiga aylanadi.

Masalan, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul muhabbat” kabi asarlarida futuvvat faqat g'oya emas, balki hayotiy obrazlar, badiiy to'qimalar, tarixiy shaxslar, avliyolar va valiy zotlarning hayotiy kuzatishlari poetik tashbehlar, majozlar, badiiy tasviriy ifodalar orqali konkret tasvirlanadi. Asarlaridagi *oshiq, yor, hukmdor, gado, darvesh* va boshqa obrazlar futuvvat g'oyalari asosida badiiy qolipga solinadi. Umuman olganda, Navoiy futuvvatni faqat tahlil va talqin

obyekti sifatida emas, balki badiiyat mezoniga aylantiradi. Uning ijodida futuvvat alohida shaxsiy axloq doirasidan chiqib, umumbashariy munosabatlar, ishq-muhabbat va adolatli jamiyat haqidagi poetik qarashlarning markaziy konsepsiyasiga aylanadi. Natijada futuvvat komil inson obrazini shakllantiruvchi yuksak estetik ideal sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy "Xamsa" dostonlarida futuvvat fazilatlarini tasvirlash bilan cheklanmay, uning poetik transformatsiyasini namoyon etadi. Shu tariqa futuvvat Navoiy talqinida jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy idealini ifodalovchi adabiy-estetik konsepsiya darajasiga ko'tariladi. Futuvvat ilmi va javonmardlik g'oyasi Alisher Navoiy davriga kelib poetik tizim sifatida shakllanadi. Navoiy futuvvatni uch xil badiiy usul orqali poetiklashtiradi:

a) **nazm** – Navoiy futuvvatning mehr-muhabbat, vafo, hayo, saxo, karam, iysor kabi fazilatlarini lirik asarlarining barchasiga singdirib yubordi:

*Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart* [Navoiy, 2013; 734].

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q* [Navoiy, 2013; 741].

b) **nasr** – Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida futuvvatni axloqiy konsepsiya darajasida tasvirlaydi. Asarda futuvvat faqat payg'ambarlar, avliyolar va so'fiylar axloqigina emas, balki jamiyatning eng quyi qatlami sanalgan kosib, ishchi, quruvchi, me'mor, usta, nonvoy, hunarmandlardan tortib, eng yuqori qatlami sanalgan boylar, vazirlar, hukumdorlargacha bo'lgan barcha toifa egallashi lozim bo'lgan yuksak ma'naviy axloq sifatida ta'riflanadi. "Nasoyim ul-muhabbat" asarida esa futuvvatning botiniy va azaliy sifatleri xos ishq vakillaring ibratli hayot yo'li misolida talqin qilinadi. Masalan, Abu Abdulloh Sijziy q. r. haqida to'xtalib shunday deydi: "*Ul debdurki, avliyoning uchta alomati bor: ulug'likda – tavozu', boylikda – zohidlik, kuch-u quvvatda – insof!. Va ham ul debdurki, voizki, tavongar aning majlisidin muftis va muftis aning majlisidin tavongar chiqmag'ay ul voiz ermas. Ondin so'rdilarki, futuvvat nedur? Dedikim, xaloyiqni ma'zur tutmoq. Ulcha alarga o'tar va o'z taqsirin ko'rmak va shafqat borcha elga ne solih, ne tolih. Va futuvvatning kamoli uldurki, kishini xalq Tengridin mashg'ul qila olmag'aylar. Birov anga dedikim, agar sanga bir filuri bersam, nechuk bo'lg'ay? Dedikim, agar bersang, senga yaxshi bo'lg'ay va agar bermasang, manga yaxshi bo'lg'ay* [Navoiy, 2013; 156].

d) **epik doston** – "Xamsa" dostonlarida futuvvat – komil inson axloqi, ilohiy ishqqa yetkazuvchi yo'l, jamiyatni tartibga soluvchi axloqiy tizim sifatida poetik transformatsiyaga uchradi. Bu ayniqsa "Hayrat ul-abror" dostonida aniq namoyon bo'ladi. Navoiy "Hayrat ul-abror" da futuvvat ilmini falsafiy-poetik konsepsiya sifatida badiiy sistemaga soladi. Futuvvat fazilatleri sanalgan saxovat, himmat, karam, muruvvat, ehson, iysor kabi axloqiy fazilatlar Navoiy dostonlarida qahramonining

ichki dunyosini boshqaruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Dostonlarda axloqiy fazilatlar qahramonning axloqiy sifati bo‘libgina qolmay, balki qahramon modeliga transformatsiyalanadi. Masalan, futuvvatning eng birinchi fazilati sanalgan saxovat, dastavval, ideal axloq sifatida moddiy va ijtimoiy yordam, ko‘mak ma‘nosida qo‘llangan bo‘lsa, Navoiy poetik idealida u oddiy saxovatdan – qalb saxovatiga aylanadi. Diniy va tasavvufiy adabiyotlarda karam ko‘proq moddiy ehson (Xotami Toy obrazi) bilan bo‘liq edi. Alisher Navoiy esa bu tushunchani yanada chuqurroq ideallashtiradi. Ya‘ni, saxovatni qalb saxovati (*himmat*) darajasiga ko‘taradi. “Hayrat ul abror” ning beshinchi maqolati aynan saxovat va himmat haqida bo‘lib, Navoiy unda “Hotami Toy saxovati va gado himmati” haqidagi hikoyatni keltiradi. Hikoyatda gado tilidan:

*K-ey solibon hirs ayog‘ing‘a band,
Oz-u tama‘bo‘ynuga bog‘lab kamand.
Vodiyi g‘ayratg‘a qadam urmag‘on,
Kunguri himmatg‘a alam urmog‘on.
Sen dog‘i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag‘il Hotam Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj.*

Hotam tilidan:

*Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi [Navoiy, 1991; 143].*

Bu hikoyatda tasvirlangan Hotami Toy saxovati, aslida, Navoiy aytmoqchi bo‘lgan fikrga bir majoz, xolos. Aslida hikoyat faqat kimgadir saxovat qilish haqida emas, balki qalbning pokligi, niyatning to‘g‘riligi haqidadir. Navoiy zohiriy karamdan ko‘ra, qalbning riyosizligini qadrlaydi. Bu yerda transformatsiya shundaki, an‘anaviy saxovatda mol berish, ehson va karam qilish bosh maqsad bo‘lsa, Navoiyda saxovat va himmat nafsni yengish tarzda namoyon bo‘ladi. Saxovat Navoiy ijodida moddiy darajadan chiqib, ruhiy-ma‘naviy darajaga aylanadi. Bu poetik transformatsiya sanaladi.

Ishq iysor orqali poetik transformatsiyaga uchraydi. Futuvvatdagi iysor o‘zini boshqalardan past tutish, o‘zgalarni esa o‘zidan yuqori qo‘yishdir. Alisher Navoiyda ishq aynan iysor orqali yuksaladi. Masalan, “Hayrat ul-abror”ning “Ishq ta‘rifida” deb nomlangan 9-maqolatida “Shayx Iroqiy” haqida hikoyat keltiriladi. Hikoyatda shayxning ishq oddiy avom ishq emas, balki xoslarga xos irfoniy ishq ekani tasvirlanadi. Shayx ishq uchun o‘z manfaatidan, obro‘sidan kechishga, hatto, o‘zligini yo‘qotishga tayyor. Bu iysorning eng oliy ko‘rinishi hisoblanadi. Tasavvufda iysor – axloqiy fazilat bo‘lsa, Navoiyda iysor ishqning ontologik sharti hisoblanadi, ya‘ni ishq uchun o‘zini qurbon qilishgacha borib yetish tushuniladi. Bunda ishq iysorsiz mavjud emas. Oshiq o‘z “men”ini qurbon qilmasa, ishq to‘liq kamol topmaydi. Navoiy doston maqolalarida ishqning fazilatlarini batafsil bayon qiladi, so‘ng unga ishqiy

sujetni tamsil qiladi. Natijada ishq fazilatlar kategoriyasidan chiqib, dramatik kuchga transformatsiyalanadi. Navoiyda saxovat va iysor ijtimoiy fazilat, tasavvufiy maqom bo‘lib qolmaydi, balki asar syujetining harakatga keltiruvchi ichki kuchiga aylanadi. Aynan shu jihat poetik transformatsiyaning yaqqol namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Navoiy dostonlaridagi futuvvatning poetik transformatsiyasini talqin qilishda futuvvat darajalarini bilish zarur. Bu darajalar quyidagilar:

- qalb futuvvati (muruvvat ko‘rsatmoqlik);
- ruh futuvvati (nubuvvat qoidalariga bo‘ysunmoq);
- sir futuvvati (kuch va quvvatdan ayrilib, Alloh kuch qudratiga tayanmoqlik)

[Kocatürk, 1996; 881-882].

Mazkur uch daraja “Xamsa” qahramonlari orqali turli xil poetik shaklga kiradi. Masalan, “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da bu fazilatlar nazariy-axloqiy qatlamda tahlil qilinsa, keyingi dostonlarda ular poetik sujet, ishqiy romantizm, estetik ideal, qahramon xarakteri orqali poetik idealga aylanadi. Masalan, Farhodning Shirin ishqida tog‘ni teshib suv chiqarishi tashqaridan qaraganda jismoniy jasorat bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida u holat ham qalb futuvvatning poetik transformatsiyaga uchragan ko‘rinishi tasviridir. Qalb futuvvatining mohiyatida o‘z nafsigar qarshi kurashish g‘oyasi yotadi. Navoiy futuvvatdagi iysor fazilatini ishq orqali dramatik darajaga olib chiqadi. Farhod Shirin uchun podshohlikdan voz kechdi, shon-shuhratidan ayrildi va oxiri o‘z jonini qurbon qilishgacha bordi. Doston tarkibiga singib ketgan iysor axloqiy fazilatdan chiqib, ishqning ontologik shartiga aylanadi. Natijada iysor ishqning mohiyatiga, fidoiylilik o‘zlikdan kechishga, axloqiy norma epik drammatizmga aylanadi. Shu tariqa Farhod timsoli futuvvat fazilatlarining poetik idealiga aylanadi. Natijada futuvvat epik qahramon xarakteri darajasida poetik transformatsiyalanadi.

“Xamsa”ning keyingi dostoni “Layli va Majnun”da ruh futuvvatining nozik qirralari metafizik shaklda tasvirlanadi. Majnun timsolida iysor fazilati chuqur poetik qatlamga aylanadi. Dostonda Majnun jamiyatdan voz kechadi, oilaviy hayotni rad etadi, sahroda yashaydi. Majnunning bu ekstaz holati oddiy fidoiylilik emas, bu o‘zlikdan kechish holatidir. Dostonda Majnun uchun shaxsiy “men” yo‘qolgan. Uning borliqdagi mavjudligi ishq bilan namoyon bo‘ladi. Majnun dunyoga ishq ko‘zi bilan qaraydi. Borliqni ishq bilan idrok etadi. Shu sababli u hayvonlar bilan yashaydi, tabiat bilan uyg‘unlashadi. Umuman, Majnunning metafizik dunyosi ishq bilan o‘lchanadi. Majnun uchun Layli oddiy ayol emas, balki mavjudlikning ma‘nosi. Natijada ishq quyidagi darajalardan o‘tadi: insoniy muhabbat – ruhiy ekstaz – metafizik mavjudlik. Majnun uchun ishq tashqi munosabat emas, balki borliqni ontologik anglash shakliga evriladi. Majnun ishqni tasavvufdagi ilohiy ishq konsepsiyasiga yaqinlashadi. Majnunning ruhiy futuvvati ilohiy ishq konsepsiyasiga poetik transformatsiyalanadi. Bu holat Majnunning o‘zligidan kechishi, dunyoviy mavjudlikni inkor qilishi, ishq orqali “men”ning erishida ko‘rinadi. Tasavvuf ta‘limotida inson kamoloti ma‘lum ruhiy bosqichlar orqali amalga oshadi. Bu bosqichlar ichida eng muhimi – fano

maqomidir. Bu maqomda inson o‘z nafsoniy “menligi”dan voz kechib, ilohiy ishq orqali haqiqat siriga yetishadi. Navoiyning Majnun obrazida ham shu holat kuzatiladi:

*O‘zlukdin o‘zungni ayla ozod,
To dashti fanog ‘a kirgaysan shod* [Navoiy, 1992; 92].

N.Komilov yuqoridagi misrani “*Tasavvuf tariqatining so‘nggi bosqichi fanoga Majnun intilishining mazmuni edi*” deya talqin qilgan edi [Komilov, 1991; 166].

Mazkur ruhiy holat futuvvat ta‘limoti nuqtayi nazaridan ham izohlanishi mumkin. Bu futuvvat ta‘limotidagi qalb futuvvati, ruh futuvvati, sir futuvvati kabi darajalarga muvofiq keladi. Futuvvatda sir futuvvati eng yuksak daraja bo‘lib, unda inson o‘z manfaatlaridan to‘liq voz kechadi va qalb faqr-u fano holatiga tushadi. Demak, “Layli va Majnun” dostonida Majnun obrazi ishqiy kechinmalar bayoni emas, balki inson ruhiyatining chuqur o‘ziga xosliklarini ifodalovchi metafizik obraz. Bu jarayon tasavvufdagi fanofilloh tushunchasi futuvvat ta‘limotidagi sir futuvvati bilan uyg‘un ekanligini ham namoyon etadi. “Layli va Majnun” dostonida sir futuvvati epik sujetda bevosita “fano” sifatida nomlanmagan bo‘lsa-da, Navoiy uni Majnun obrazining eng chuqur poetik qatlamlariga singdirib yuboradi. Ammo bu yerda sir futuvvatini fano kabi tasavvufiy maqom deb emas, balki ko‘proq ramz sifatida qabul qilish to‘g‘riroq.

“Sab‘ai sayyor” dostonidagi hikoyatlarda futuvvat g‘oyasi badiiy-estetik va axloqiy-didaktik yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Navoiy dostonida futuvvat g‘oyasini alohida nazariy tizim sifatida emas, balki hikoyatlarning ichki mazmuniga singdirilgan axloq konsepsiya sifatida ifodalaydi. Dostondagi yetti hikoyat futuvvat fazilatlarining turli qirralarini yoritadi. [Epik sujetda futuvvat konsepsiyasi komil inson g‘oyasini shakllantiruvchi adabiy-estetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

“Xamsa”ning keyingi yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy”da futuvvat g‘oyasi faqat axloqiy-ijtimoiy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-estetik tizim ichida qayta yaratilgan badiiy transformatsiya jarayoniga uchraydi. “Xamsa” tarkibidagi ushbu dostonida Navoiy futuvvatni an’anaviy tasavvufiy-axloqiy mazmundan olib, uni Iskandar obrazi orqali epik-badiiy va ramziy darajaga ko‘taradi.

Birinchidan, futuvvat oddiy axloqiy tushuncha sifatidan badiiy obrazga aylantiriladi. Ya‘ni, nazariy fazilatlar (adolat, saxovat, ilm, kamtarlik) alohida g‘oya sifatida berilmaydi, balki Iskandar xarakterida mujassamlanadi. Shu orqali futuvvat “tushuncha”dan “tirik badiiy shaxs”ga ko‘chadi. Bu – Navoiy poetikasiga xos personifikatsion transformatsiyadir.

Ikkinchidan, futuvvat axloqiy-ijtimoiy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-estetik tizim ichida qayta yaratilgan poetik transformatsiya jarayoniga uchraydi. Asarda adolat faqat davlat boshqaruvi prinsipi emas, balki olam tartibini saqlovchi universal qonun sifatida talqin etiladi.

Uchinchidan, futuvvatning ma‘nosi axloqiy ta‘rifdan epik jarayonga o‘tadi. Masalan, Iskandarning yurishlari, donishmandlar bilan muloqoti va Yajuj-Majjudan himoya devorini qurishi kabi voqealar orqali futuvvat nazariy emas, balki harakatda

namoyon bo'ladigan fazilat sifatida beriladi. Bu esa uni voqeaviy badiiy tizimga aylantiradi.

To'rtinchidan, futuvvat tasavvufiy botiniy ma'no bilan tarixiy-hikoyaviy shakl sinteziga kiradi. Ya'ni, Iskandar tarixiy-hikoyaviy shaxs sifatida ko'rsatilsa-da, u ayni paytda komil insonning ramziy timsoliga aylanadi. Bu jarayon futuvvatni real tarixdan metafizik ma'noga ko'taradi.

Demak, "Saddi Iskandariy"da futuvvat oddiy axloqiy tushunchadan badiiy obrazlashgan va harakatga asoslangan poetik tizimga aylanadi. Navoiy bu orqali futuvvatni faqat nazariy ideal emas, balki Iskandar timsolida jonlangan komil inson modeli sifatida qayta yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, futuvvat dastlab payg'ambarlar silsilasida diniy-axloqiy dastur sifatida, tasavvuf ta'limotida esa axloqiy-ma'naviy konsepsiya sifatida shakllangan. Keyinchalik epik va og'zaki adabiyotda u poetik tafakkur bosqichiga ko'tarilib, badiiy talqin obyektiga aylangan. Muruvvat va futuvvatga xos fazilatlar tizimi saxovat, himmat, karam, ehson, muruvvat va iysor kabi axloqiy kategoriyalar orqali ierarxik shakllanish jarayonini namoyon etadi.

Shu tariqa futuvvat axloqiy fazilatlar majmuasidan badiiy-estetik konsepsiyaga aylanish jarayonini boshdan kechiradi. Uning poetik timsol va adabiy konsepsiya sifatidagi yuksak namoyoni Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu asarlarda futuvvat qahramonlarning ichki dunyosi, fidoyiligi, saxovati va ijtimoiy mas'uliyati orqali poetik ideal darajasida tasvirlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, futuvvat nafaqat axloqiy g'oya sifatida, balki badiiy tasvir va syujet dinamikasining tarkibiy elementi sifatida ham namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda futuvvat ko'proq falsafiy kategoriya sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, uning badiiy-poetik evolyutsiyasi yetarlicha kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Ushbu kuzatishlar mazkur yo'nalishdagi dastlabki ilmiy urinishlardan biri bo'lib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Afifiy, A.A. (1996). *Melâmilik, sūflik ve ehl-i fütüvvet*. Istanbul: Tasavvuf ve manevî hayat.
2. Arnakis, G.G. (1953). Futuwwa traditions in the Ottoman Empire: Akhis, Bektashi dervishes and craftsmen. *Journal of Near Eastern Studies*, 12(4), 232–247.
3. *Avesto: Tarixiy-adabiy yodgorlik*. (2001). (A.Mahkam (Tarj.)). Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
4. Bertels, E.E. (2005). *So'fizm va tasavvuf adabiyoti* (I.Mirzaev (Tarj.)). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
5. Gölpınarlı, A. (2011). *İslam ve Türk illerinde fütüvvet teşkilatı*. Istanbul: Akademik Yayınlar.
6. Haqqulov, I. (2001). *Ahmad Yassaviy*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Kaykovus, (2015). *Qobusnoma*. (M.R. Ogahiy (Tarj.)). Toshkent: O'qituvchi.
8. Kocatürk, S. (1996). *Bir fütüvvet şeceresi üzerine*. *Idem*, 8(24), 867–894.
9. Komilov, N., & Erallyev, B. (1991). Ishq otashining samandari. *Sharq yulduzi*, 11, 166.
10. Koshifiy, H.V. (2019). *Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomayi sultoniy* (N.Komilov (Tarj.)). Toshkent: O'zbekiston NMIU.
11. Majjub, M.J. (1993). Javānmardi dar Irān va Islam. *Irannameh*, 11(1), 7–16.

12. Navoiy, A. (1991). *Hayrat ul-abror*. O‘zbekiston “Fan” nashriyoti.
13. Navoiy, A. (1992). *Layli va Majnun*. Toshkent: Fan.
14. Navoiy, A. (2013). *Favoyid ul-kibar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
15. Navoiy, A. (2013). *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
16. Navoiy, A. (2013). *Nasoyim ul-muhabbat*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
17. Navoiy, A. (2013). *Nazm ul-javohir*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
18. Navoiy, A. (2013). *G‘aroyib us-sig‘ar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
19. *Qur‘oni Karim: O‘zbekcha izohli tarjima*. (1992). (A.Mansur (Tarj.)). Toshkent: Cho‘lpon.
20. *Qur‘oni Karim: O‘zbekcha izohli tarjima*. (2004). (A.Mansur (Tarj.)). Toshkent: Cho‘lpon.
21. Sajjodiy, S.J. (1991). *Farhangi istilohot va ta‘biroti irfoniy*. Tehron: Intishorot-e Tahuri.
22. Sulamiy. (1977). *Tasavvufda futuvvat* (S.Otash (Tarj.)). Ankara: Ilohiyot fakulteti nashriyoti.
23. Taeschner, F. (1979). *Zünfte und Bruderschaften im Islam*. Munich: Artemis Verlag.
24. Trimmingham, J.S. (1989). *Sufiyskie ordena v islame* (O.F. Akimushkin (Red.)). Moskva: Nauka.
25. Umarov, S. (2024). Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin. *Oltin bitiglar*, 4, 91–108.
26. Vazirov, V. (1991). *Ocherki falsafai ijtimoiy kalom va futuvvat*. Dushanbe: Donish.
27. von Grunebaum, G.E. (1986). *Klassicheskiy islam: Ocherki istorii (600–1258)*. Moskva: Nauka.
28. Yassaviy, A. (1991). *Hikmatlar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
29. Zakeri, M. (1995). *Sasanid soldiers in early Muslim society: The origins of Ayyaran and futuwwa*. Wiesbaden: Harrassowitz.
30. G‘azzoliy, A.H. (2021). *Ihyoyi ulumiddin* (B.Muhiddinov (Tarj.)). Toshkent: Qamar Media.
31. Shukurov, M. (Ed.). (1969). *Farhangi zaboni tojikī (az asri X to ibtidoi asri XX)*. Moskva: Sovetskaya entsiklopediya.

REFERENCES

1. Afifi, A. A. (1996). *Malamatism, Sufism, and the people of chivalry*. Istanbul: Sufism and Spiritual Life Publishing House.
2. Arnakis, G.G. (1953). Chivalric traditions in the Ottoman Empire: Akhis, Bektashi dervishes, and craftsmen. *Journal of Near Eastern Studies*, 12(4), 232–247.
3. *Avesta: A historical and literary monument*. (2001). (A.Mahkam, Transl.). Tashkent: East Publishing House.
4. Bertels, E.E. (2005). *Sufism and mystical literature* (I.Mirzaev, Transl.). Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia State Scientific Publishing House.
5. Ghazzali, A.H. (2021). *Revival of the Religious Sciences* (B.Muhiddinov, Transl.). Tashkent: Qamar Media.
6. Gölpınarlı, A. (2011). *The chivalric organization in Islamic and Turkic lands*. Istanbul: Academic Publications.
7. Haqqulov, I. (2001). *Ahmad Yassavi*. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
8. Kaykavus. (2015). *The Book of Qabus* (M.R. Ogahi, Transl.). Tashkent: Teacher Publishing House.
9. Kocatürk, S. (1996). On a genealogy of chivalry. *Idem*, 8(24), 867–894.
10. Komilov, N., & Eraliyev, B. (1991). The salamander of the fire of love. *Eastern Star*, 11, 166.
11. Koshifi, H.V. (2019). *Muhsini ethics. The Sultan’s book of chivalry* (N.Komilov, Transl.).

- Tashkent: Uzbekistan National Media and Information University Press.
12. Majjub, M.J. (1993). Chivalry in Iran and Islam. *Irannameh*, 11(1), 7–16.
 13. Navo'i, A. (1991). *Wonder of the Righteous*. Tashkent: Science Publishing House.
 14. Navo'i, A. (1992). *Layla and Majnun*. Tashkent: Science Publishing House.
 15. Navo'i, A. (2013). *Beloved of hearts*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
 16. Navo'i, A. (2013). *Benefits of old age*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
 17. Navo'i, A. (2013). *Breezes of love*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
 18. Navo'i, A. (2013). *Poetry of jewels*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
 19. Navo'i, A. (2013). *Wonders of childhood*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing Creative House.
 20. Sajjodi, S. J. (1991). *Dictionary of mystical terms and expressions*. Tehran: Tahuri Publications.
 21. Shukurov, M. (Ed.). (1969). *Dictionary of the Tajik language (from the 10th century to the beginning of the 20th century)*. Moscow: Soviet Encyclopedia.
 22. Sulami. (1977). *Chivalry in Sufism* (S. Otash, Transl.). Ankara: Faculty of Theology Press.
 23. Taeschner, F. (1979). *Guilds and brotherhoods in Islam*. Munich: Artemis Publishing House.
 24. *The Holy Qur'an: Annotated Uzbek translation*. (1992). (A.Mansur, Transl.). Tashkent: Cholpon Publishing House.
 25. *The Holy Qur'an: Annotated Uzbek translation*. (2004). (A. Mansur, Transl.). Tashkent: Cholpon Publishing House.
 26. Trimmingham, J.S. (1989). *Sufi orders in Islam* (O.F. Akimushkin, Ed.). Moscow: Science Publishing House.
 27. Umarov, S. (2024). Chivalry and artistic creation: Analysis and interpretation. *Golden Manuscripts*, 4, 91–108.
 28. Vazirov, V. (1991). *Essays on the philosophy of social theology and chivalry*. Dushanbe: Knowledge Publishing House.
 29. von Grunebaum, G.E. (1986). *Classical Islam: Historical essays (600–1258)*. Moscow: Science Publishing House.
 30. Yassavi, A. (1991). *Wisdoms*. Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
 31. Zakeri, M. (1995). *Sasanid soldiers in early Muslim society: The origins of Ayyaran and chivalry*. Wiesbaden: Harrassowitz.